



## BUXGALTERIYA HISOBI. BUXGALTERIYA HISOBOTINI TEKSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI.

**Abdullayeva Madinabonu Muxmudjon qizi**  
**Otaqulov Baxtiyor Dilmurodjon o'g'li**

*Farg'ona sanoat va xizmat ko'rsatish texnikumi talabalari*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada buxgalteriya hisobi va hisoboti auditining hozirgi holatini o'rganish hamda rivojlangan davlatlar tajribasi asosida auditning yangi usullarini o'zlashtirish orqali moliyaviy hisobot auditini tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha vazifalari haqida ma'lumotlar berilib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *buxgalteriya, hisob, audit, hisobot, iqtisod, korxonalar, modernizatsiyalash va liberallashtirish.*

### **Kirish.**

Moliyaviy hisobotning shakllanish jarayoni, uning korxonalar faoliyatidagi o'rni o'z navbatida bir qancha hisob-kitob ishlarini amalga oshirish va mavjud imkoniyatlardan foydalanish yo'nalishlarini aniqlashni talab etadi. Korxonalarning moliyaviy jihatdan barqaror bo'lishi ularning faoliyati davomida olgan foydasining to'g'ri shakllantirilishi bilan aloqadordir. Shu sababga ko'ra ham xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning buxgalteriya hisoboti ko'rsatkichlarini ifodalovchi moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti ustidan doimiy nazorat olib borish muhim masalalardan biri hisoblanadi[1,3,5]. Bu vazifalarni bajarish uchun xo'jalik sub'yektlari buxgalteriya hisob va hisoboti auditini milliy standartlar talabi darajasida tashkil qilish, moliyaviy hisobot ma'lumotlarini tahlil qilish, xorijiy davlatlar tajribasi asosida audit jarayonini takomillashtirish zaruriyati sezilmoqda. Shu nuqtai nazarga ko'ra ham buxgalteriya hisobi va hisoboti auditini har tomonlama o'rganishni talab etadigan muammolardan hisoblanadi[1,2,4].

Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'yektlari buxgalteriya hisobi va hisoboti auditini tashkil etishning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini o'rganish asosida hisobot auditini tashkil etish va o'tkazishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish kurs ishining maqsadini tashkil qiladi[6,7]. Buxgalteriya hisobi va hisoboti auditining hozirgi holatini o'rganish hamda rivojlangan davlatlar tajribasi asosida auditning yangi usullarini o'zlashtirish orqali moliyaviy hisobot auditini tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha quyidagi vazifalar belgilab olingan:

- ✓ buxgalteriya hisobi holatini o'rganish va uni baholash;
- ✓ buxgalteriya hisoboti auditini tashkil etishning nazariy asoslarini o'rganish;
- ✓ buxgalteriya hisoboti auditining rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish;



- ✓ buxgalteriya hisoboti auditini takomillashtirish;

Yuqorida keltirilgan masalalardan kelib chiqqan holda respublikamiz audit tizimida moliyaviy hisobot auditini tashkil etishning usullarini aniqlash va amaliyotga tadbiiq qilish imkoniyatlarini o'rganib chiqish[1,8,9,10,11,12].

### Asosiy qism.

O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 1-sonli milliy standarti «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot»ga muvofiq hisob siyosati xo'jalik yurituvchi sub'yekt rahbari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlash hamda tuzish uchun foydalaniladigan maxsus tamoyillar, qoidalar va amaliy yondashuvlar to'plamini ifodalaydi[1,13,15,17].

Xo'jalik yurituvchi sub'yektning hisob siyosati korxonaga rahbari tomonidan tuzilib, xo'jalik yurituvchi sub'yektning turli yillar uchun taqdim qilingan moliyaviy hisobotlaridagi ko'rsatkichlar taqqoslanuvchan, hamda boshqa aloqador standartlar asosida shakllantirilgan bo'lishi lozim.

Hisob siyosatini shakllantirish va unga rioya qilinishi masalalari auditning ahamiyatli sohalaridan bo'lib, moliyaviy hisobotlarining ishonchligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan hisob siyosati buxgalteriya hisobi va hisobotlarini auditorlik tekshiruvdan o'tkazishning barcha bosqichlarida - auditni rejalashtirishdan to auditorlik xulosasini tuzgunga qadar muhim tekshiruv ob'yekti bo'lib hisoblanadi[1,14,16,18].

Auditorlik faoliyatining milliy andozalarida ham tekshiriladigan korxonaga faoliyatini tartibga soladigan asosiy hujjatlardan biri sifatida hisob siyosati tan olinadi.

Buxgalteriya hisobi va hisobotning tashkil etilishini tekshirish chog'ida hisob siyosati bilan tanishishning maqsadi buxgalteriya hisobini tashkil etishning asosiy tamoyillarini va tekshiriladigan korxonaning hujjatlar aylanishi grafigini o'rganish hamda baholashdan iborat. Bunda hisob siyosatini belgilaydigan farmoyish hujjatlarining mavjudligi va tarkibi aniqlanadi[19,20,21,22,23].

Hisob siyosatining mazmunini ifodalaydigan ma'lumot manbalari quyidagi jadvalda ko'rsatilgan:

#### 1-jadval

#### Hisob siyosatining mazmunini ifodalaydigan ma'lumot manbalari.

1.	mijoz korxonaning hisob siyosati to'g'risidagi buyrug'i
2.	buxgalteriya hisobining ishchi schyotlar rejasi
3.	tasdiqlangan dastlabki hujjatlar shakllari va ichki moliyaviy hisobotlari uchun hujjatlar shakllarining ro'yxati
4.	hujjatlar aylanish reja-grafigi va hisob axborotlariga ishlov berish texnologiyalari
5.	ayrim ko'rsatkichlarni hisobga olish bo'yicha tasdiqlangan uslubiyot va tekshiriladigan korxonaga hisob siyosati to'g'risidagi buyruqqa boshqa ilovalar

Quyidagi masalalarni bayon qiladigan hisob siyosatiga taalluqli ma'lumotlar to'planishi lozim:





- hisob siyosatini shakllantirishda tanlab olinadigan, o'tgan yilgidan farq qiladigan buxgalteriya hisobini yuritish usullari;

- hisobot yilida yoki hisobot yilidan keyingi davrlarda moliyaviy hisobotlaridan foydalanuvchilarning baholash va qaror qabul qilishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadigan hisob siyosatidagi o'zgarishlar;

- hisobot sanasidan keyin sodir bo'lgan hodisalar va xo'jalik faoliyatining shartli faktlari, muomalalarni to'xtatish, bitta aksiyaga to'g'ri keladigan foyda.

Ushbu ma'lumot manbalarini o'rganish va tahlil qilish natijasida mijoz korxonaga ma'muriyatining hisob siyosatini shakllantirish hamda uni bajarishga mas'uliyat aniqlanib, baholanishi zarur. Hisob siyosati to'g'risidagi buyruq va u bilan bog'liq bo'lgan, o'z vaqtida chiqarilgan va to'g'ri rasmiylashtirilgan farmoyish hujjatlarining mavjudligi - hisob siyosatidan korxonani boshqarish mexanizmi sifatida foydalanilayotganligi haqida yetarli darajada guvohlik bera olmaydi.

Hisob siyosatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning maqsadi - mijoz korxonaga moliyaviy hisobotining ishonchliligi to'g'risida xulosa tuzishdan iborat bo'lib, hisob siyosati 1-sonli BHMSga muvofiq ularni bajarishni ta'minlashi lozim. Shuningdek, moliyaviy hisobotning ishonchliligi to'g'risida fikr shakllantirishda quyidagi holatlar ham inobatga olinishi zarur:

- korxonalarining mulkiy holisligi;
- hisob siyosatini qo'llashning izchilligi;
- xo'jalik faoliyati faktlarining aniqligi.

Auditorlik tekshiruvini o'tkazishda quyidagilarni ham aniqlash zarur:

- hisob siyosatiga doir farmoyish hujjatlarining mavjudligi va ularning tarkibi;
- hisob siyosatiga doir hujjatlar shakllari va qabul qilish muddatlarining me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligi;

- me'yoriy hujjatlar bilan belgilangan hisob usullaridan farq qiladigan, lekin korxonaning mulkiy holatini va moliyaviy natijalarini ishonarli aks ettirishga imkon beradigan usullar mavjudligi;

- hisob siyosatini shakllantirish chog'ida tanlangan, moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar tomonidan korxonaga moliyaviy holatini baholash va qaror qabul qilishga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan buxgalteriya hisobini yuritish usullarining mohiyati to'liq ochib berilganligi;

- hisob siyosatini qabul qilish tartibiga rioya qilinayotganligini tekshirishi lozim:

- hisob siyosatini qabul qilish to'g'risida korxonaga rahbarining buyrug'i (farmoyishi) chiqarilganligi[1].

Yangidan tashkil etilgan xo'jalik yurituvchi sub'yekt tanlangan hisob yuritish siyosatini moliyaviy hisobotini birinchi marta e'lon qilgunga qadar, lekin yuridik shaxs huquqini olgan kundan boshlab 90 kundan kechikmasdan rasmiylashtirishi lozim. Korxonaga tomonidan tanlangan hisob siyosati yuridik shaxs huquqini olgan kundan boshlab qo'llanuvchan hisoblanadi.

Hisob siyosati kalendar yili davomida o'zgartirilmaydi[1,2,3,4,5].



## Xulosa

Respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasi o'laroq, davlatimizning mulkdorlar sinfi kengayib bormokda. Respublikamizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va liberallashtirish sharoitida auditorlik tashkilotlarini iqtisodiyotdagi o'rnini muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga olgan holda, ularni faoliyat doirasini, faoliyat turlari imtiyozlari, huquq va majburiyatlarini belgilovchi huquqiy negizi, shuningdek mijoz korxonalar moliyaviy hisoboti ishonchliligini tasdiqlovchi auditorlik xulosalari nazariy va amaliy asoslari, qonun hujjatlari belgilab berildi.

Auditorlik tekshiruvida buxgalteriya hisobini yurituvchi va moliyaviy hisobotni shakllantiruvchi bo'linmaning tarkibiy tuzilmasi yagona shakli hech bo'lmaganda buxgalteriya hisobining milliy andozalarida belgilab berilishi lozim va bu tuzilmaning maqomi qat'i ravishda qonunchilikda belgilanishi va tarmoq xususiyatidan kelib chiqqan holda, «O'zbekiston Respublikasi korxonalar va tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil etish tartibi to'g'risida»gi Yo'riqnomalar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Муродов Б, “Иқтисодийни модернизациялаш шароитида бухгалтерия ҳисоби ва аудити ҳолати масалалари”, ТОШКЕНТ – 2013
2. Khakimova K. et al. Application of GIS technologies for improving the content of the tourist map of Fergana province, Uzbekistan //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 386.
3. qizi Olimova D. S. et al. THEORETICAL BASIS FOR THE USE OF MODERN GIS TECHNOLOGIES IN THE CREATION OF NATURAL CARDS //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 4-10.
4. Sherzodbek Y., Sitora M. THE ESSENCE OF CARTOGRAPHIC MAPS IS THAT THEY ARE USED FOR CARTOGRAPHIC DESCRIPTION OF THE TERRAIN //GENERALIZING WORKS IN THE PREPARATION OF MAPS.-2022.-2022.-2022. – 2022.
5. Yusufovich G. Y., Shavkat o'g'li S. Y. CARTOGRAPHIC RESOURCES USED IN THE CREATION OF ELECTRONIC AGRICULTURAL MAPS OF FERGANA REGION //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – Т. 11. – №. 3. – С. 1001-1009.
6. Abduvakhovich A. A., Shavkat o'g'li S. Y. IMPROVING THE METHOD OF MAPPING AGRICULTURE USING REMOTE SENSING DATA //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – Т. 11. – №. 3. – С. 1093-1100.





7. Mavlyankulova S. Z. et al. THE ESSENCE AND FUNCTIONS OF CREATING A CARD, CHOOSING A METHOD FOR CREATING A CARD //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – T. 1. – №. 11. – С. 3-8.
8. Ахмедов Б. М., ўғли Ёқубов Ш. Ш. КАДАСТР СЁМКАСИНИ БАЖАРИШ УЧУН ТОПОГРАФИК АСОСЛАР //INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – Т. 1. – №. 8. – С. 287-291.
9. O'G'Li S. Y. S., Zuxriddinova M. S., Qizi A. S. B. THE USE OF MAPINFO PROGRAM METHODS IN THE CREATION OF CADASTRAL CARDS //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. А3. – С. 278-283.
10. Mamatqulov O., Qobilov S., Yokubov S. CULTIVATION OF MEDICINAL SAFFRON PLANT IN THE SOIL COVER OF FERGANA REGION //Science and Innovation. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 240-244.
11. Khakimova K., Yokubov S. CREATION OF AGRICULTURAL ELECTRONIC MAPS USING GEOINNOVATION METHODS AND TECHNOLOGIES //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. D1. – С. 64-71.
12. Mamatqulov O., Qobilov S., Yokubov S. Farg 'ona viloyatining tuproq qoplamida dorivor zafaron o 'simligini yetishtrish //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D7. – С. 240-244.
13. Berdaliyeva Y. X. et al. Gis Dasturlari Yordamida Geografik Asos Qatlamlarini Joylashtirish Va Ularni Boshqarish //INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 312-314.
14. Abduraxmonov A. A. et al. DAVLAT YER KADASTRIDA GIS TEXNANOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH //INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – Т. 1. – №. 8. – С. 228-233.
15. Mavlyankulova S. Z. et al. THE ESSENCE OF CARTOGRAPHIC MAPS IS THAT THEY ARE USED FOR CARTOGRAPHIC DESCRIPTION OF THE TERRAIN. GENERALIZING WORKS IN THE PREPARATION OF MAPS //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 27-33.
16. Khakimova K. R. et al. SOME TECHNOLOGICAL ISSUES OF USING GIS IN MAPPING OF IRRIGATED LANDS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 4. – С. 226-233.
17. Alakhanov Z. M. et al. THE STATE CADASTRE FOR THE REGULATION OF INFORMATION RESOURCES FOR THE FORMATION AND IMPROVEMENT //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 47-53.
18. Arabboevna A. M., Shavkat o'g'li Y. S. The Use of Geoinformation Systems in the Study of the Land Fund of Household and Dekhkan Farms //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – Т. 8. – С. 163-164.
19. Ибайевич М. Q. Свайные Фундаменты Сельскохозяйственных Зданий На Засоленных Грунтах //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 290-295.



**20.** Ibayevich M. K. В ГОРИЗОНТАЛЬНО ЗАГРУЖЕННЫЕ СВАИ В ЗАСОЛЕННЫХ ГРУНТАХ //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – Т. 11. – №. 3. – С. 1085-1092.

**21.** Ibayevich M. Q. Design of Foundations in Extremely Solid Soils //Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences. – 2023. – Т. 16. – С. 11-15.

**22.** Ibayevich M. K., Qizi E. M. A. Preparation of Maps for Tourist and Recreational Purposes Based on GIS Technologies //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 296-302.